

## TADBIKOLIKNI BARQAROR RIVOJLANISHTIRISH ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Abdurahmanova Zuleyha Olimjanovna*  
*Namangan muhandislik-texnologiya instituti*  
*“Iqtisodiyot” kafedrasi asistenti*  
[zulayxoabduraxmanova7@gmail.com](mailto:zulayxoabduraxmanova7@gmail.com)  
+998938356600

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va to'qimachilik sanoati korxonalarining barqarorligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish samaradorligi korxonalar faoliyatining natijadorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Dunyo miqyosida ishlab chiqarish sanoatining yetakchi davlatlari tajribasi ham tahlil qilinib, O'zbekistonning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish tendensiyalari ko'rib chiqilgan. Namangan viloyati misolida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatiga oid statistik tahlillar keltirilib, hududiy rivojlanish jarayonlari yoritilgan

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, Samaradorlik, ishlab-chiqarish, sifat omillari, barqarorlik, korxonalar, to'qimachilik, mahsulot

### I. KIRISH

Bugungi kunda tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida nafaqat daromad keltirish, balki jamiyat va uchun barqaror qiymat yaratish vazifasini ham o'z zimmasiga olmoqda.[1] Iqtisodiyotning muhim shartlaridan biri Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bu jarayonda muhim o'rin tutadi, chunki u resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. U obyektiv iqtisodiy qonunlar, samaradorlik, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi – natijani, ya'ni oqibatni aks ettiradi. Bu orqali korxonalar faoliyati samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Ma'lumki ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismlarining mazmun mohiyati jamiyatning xarakteriga keltirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham undagi sifat o'zgarishlar va ulardan oqilona foydalanish yo'llarini aniqlash iqtisod uchun muhim ahamiyatga egadir.

Dunyoda etakchi o'rinlaridan biri hisoblangan sanoatda ishlab chiqarish bugungi kunda.

1. Xitoy jahon ishlab chiqarishining 31,6 foizini tashkil etgan holda ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchilik qilishda davom etmoqda.

2. Amerika Qo'shma Shtatlar ikkinchi o'rinni egallab, global ishlab chiqarishning 15,9 foizini tashkil qiladi.

3. Yaponiya 6,5%


4. Germaniya to'rtinchi o'rinni egallab, global ishlab chiqarish hajmiga 4,8% hissa qo'shmoqda. Shuning uchun ham Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va hususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasida islohotlar amalga oshirildi. [2]

## II. ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga nisbatan ishlab chiqarish samaradorligi masalasini ko'tarib, ilmiy iqtisodchi olimlarning ishlarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligining turli jihatlari yoritilgan. Biroq har bir shakllanishda ishlab chiqarish samaradorligi hukmron ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadigan o'ziga xos ob'ektiv shaklda namoyon bo'ladi. Qator g'arb iqtisodchilarining, jumladan, **Michael E. Porter** – "The Competitive Advantage of Nations" (Millatlarning raqobatbardosh ustunligi). Ushbu asarda Porter milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini tahlil qiladi va barqaror rivojlanish uchun strategik yondashuvlarni taklif etadi.[3] Bizning ham uzbek olimlarimizdan bir qator faktlar va yondashuvlar mavjuddir. Xusniddin Yuldashev "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari" maqolasi orqali yoritib bergan.[4] Abdullaev B. Mahalliy ishlab chiquvchilarning innovatsion faoliyatini kuchaytirish iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam berishni aniqlagan.[5]

## III. NATIJA


Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. Jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy o'sishning sifat omillari, xususan, xalq milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, shuningdek qishloq xo'jaligini har tomonlama intensivlashtirish, ilm-fan yutuqlari, ilg'or texnologiya va tajriba o'tkazish asosida rivojlantirishning yakuniy iqtisodiy natijasi bo'lgan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Samaradorlik – bu ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy tushuncha bo'lib, har bir muallif uni turli nuqtai nazardan baholaydi. Umumiy holda aytganda, samaradorlik – bu erishilgan iqtisodiy natijaning unga erishish uchun sarflangan resurslarga nisbati bilan aniqlanadigan faoliyat natijadorligidir.



**1-rasm 2020-2024- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm (Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari 2020-2024y)<sup>50</sup>**

<sup>50</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Tahlilimiz jarayonda 2020-2024- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasini ( trln. so‘m) o‘rganib chiqdik Namangan viloyatida 2020 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi (5,6 trln. So‘m), bo‘lgan bo‘lsa 2021- yillarda esa (7,2 trln so‘m)ga yetdi, 2024 -yillarda esa (16trln. So‘m) ga ko‘tarilgan. Bu esa o‘z navbatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida samarali darajada o‘zgarish sezish mumkin.



**2-rasm 2024- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % (Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari 2020-2024y)<sup>51</sup>**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqo‘rg‘on tumani va Norin tumanlari (99,9 %), Namangan tumani (81,1 %), Pop tumani (78,2 %), Uychi tumani (70,2 %), Namangan shahri (60,3 %) tashkil etdi. 2024- yilning kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 15 970,3 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

<sup>51</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan


**2020-2024 yilning hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m (Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari 2020-2024y)<sup>52</sup>**

**3-jadval**

T/R	Namangan viloyati tumanlar kesimida	Mrld so‘mda
1.	Namangan sh.	5998,3
2.	Namangan	1523,2
3.	Uychi	1102,6
4.	Kosonsoy	918,1
5.	Pop	693,8
6.	Norin	593,7
7.	Chust	573,6
8.	Yangiqo‘rg‘on	484,8
9.	To‘raqo‘rg‘on	458,2
10.	Mingbuloq	428,0
11.	Uchqo‘rg‘on	385,7
12.	Chortoq	300,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (5 998,3 mlrd so‘m), Namangan (1523,2 mlrd so‘m), Uychi (1102,6 mlrd so‘m), Kosonsoy (918,1 mlrd so‘m) va Pop (693,8 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Chortoq tumanida (300,0 mlrd so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda. Keltirilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari hajmi keng ko‘lamda o‘sganligini guvohi bo‘lamiz. Hududlar kesimida sanoatda ishlab chiqarish hajmining keskin ko‘tarilganligi bois ishlab chiqarish mahsulotlariga bo‘lgan talab ko‘paygan bu esa o‘z navbatida kichik biznesda yangi va investitsiya, innovatsiya tadbirkorlikka keng ko‘lamda shart sharoitlar yaratilganligi yaqqol ko‘rinmoqda. Bu esa samaradorlik bu foydalilik, natijalilikdir. Ma’lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish va ma’lum miqdorda xarajat qilish kerak.

<sup>52</sup> Statistika ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan



### **To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2022-2024 yil (Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari 2020-2024y)<sup>53</sup>**

2023-yillarda jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,7 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024- yilda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 108,0 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 6 853,0 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Demak, Samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

### **IV. XULOSA**

Xulosa qilib, shuni aytish lozimki Mamlakatimizda korxonalarini rivojlantirish uchun respublikamizning iste'mol bozorlarini aholi o'rtasida xaridorgir bo'lgan sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, kichik korxonalar tomonidan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, tarmoqda yangi texnik va texnologik, investitsiya siyosatini yuritish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobiga yangi va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni muntazam o'zlashtirish, tarmoq korxonalarini yangi texnikalar bilan jihozlashga jiddiy e'tibor qaratish uchun xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi. Hurmatli O'zbekiston respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev farmoni "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida." To'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo'ynachilik sohalarin korxonalari (foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigon bazasini yetti yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytirish). O'zbekistonda eng ko'p sonli korxonalar faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biri bu

<sup>53</sup> Statistika ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

to'qimachilik sanoatidir. To'qimachilik sanoati raqobqtbardoshligini oshirish, soha korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, import mahsulotlar bilan sifat jihatdan raqobatlasha olish salohiyatiga erishish tarmoqning dolzarb masalalaridan sanaladi.

## V. ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Farg'ona politexnika instituti dotsenti Toshpulatov Ikboljon “To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish”

2. <https://aniq.uz/iktisod>

3. [https://en.wikipedia.org/wiki/Diamond\\_model](https://en.wikipedia.org/wiki/Diamond_model)

4. Xusniddin Yuldashev, Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari, YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT: Vol. 1 No. 4 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali

5. Namangan viloyatining 2024- yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati Nam.stat.uz

6. Nodira Mamatqulova, “Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish” Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 1 (2021) / ISSN 2181-1415

7. O'zbekiston respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev. “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida.”